

**“TASDIQLAYMAN”**

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATB  
Korrupsiyaga qarshi  
kurashish xizmati rahbari  
Sh. Ismoilov**

“25” dekabr 2025-yil

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATB faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash  
hamda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirish  
bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan yig‘ilish bayoni**

**№ \_\_\_\_\_**

**Raislik qiluvchi:** Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati rahbari -  
Sh. Ismoilov

**Qatnashdilar:** Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati  
xodimlari

#### **KUN TARTIBI:**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-sonli  
hamda 2022-yil 14-iyundagi PF-154-sonli Farmonlari ijrosini ta’minlash,  
shuningdek ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirilishi lozim bo‘lgan ijtimoiy  
ahamiyatga molik ma’lumotlar bo‘yicha 2025-yilning 1-, 2- va 3-choraklari  
davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan o‘tkazilgan masofaviy monitoring  
natijalarini muhokama qilish.**

-----  
Kun tartibidagi masala yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati rahbari  
- Sh. Ismoilov so‘zga chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil  
16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash,  
shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir chora-tadbirlar  
to‘g‘risida”gi PF-6247-sonli hamda 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va  
tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish  
chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-154-sonli Farmonlari bilan belgilangan vazifalar  
ijrosini ta’minlash maqsadida ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirilishi lozim bo‘lgan  
ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar yuzasidan 2025-yilning 1-, 2- va 3-choraklari  
davomida amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha masofaviy monitoring o‘tkazilganligini  
ma’lum qildi.

Monitoring natijalariga ko‘ra ayrim tarkibiy bo‘linmalar tomonidan ishlar lozim  
darajada tashkil etilmaganligi sababli bir qator kamchiliklar aniqlanganligi qayd etildi.

#### **Birinchi chorak yakunlari bo‘yicha:**

- Qayta aloqa tizimining samarali yo‘lga qo‘yilganlik darajasi;

- O‘z faoliyatiga oid hisobotlarni e‘lon qilish holati;
- Mansabdor shaxslarning xarajatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning e‘lon qilinishi;
- Avtomototransport vositalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning e‘lon qilinishi;
- Xarajatlar smetasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning e‘lon qilinishi;
- Davlat xaridlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning e‘lon qilinishi;
- Asosiy vositalarning xarid qilinishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning e‘lon qilinishi;
- Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar xaridi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning e‘lon qilinishi;
- Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishda korrupsiyaviy holatlarning oldini olish tizimi joriy etilganligi.

**Ikkinchi chorak yakunlari bo‘yicha:**

- Murojaatlarning umumlashtirilgan natijalarini e‘lon qilib borish darajasi;
- Avtomototransport vositalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning e‘lon qilinishi;
- Xizmat uylari va boshqa ko‘chmas mulklar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning e‘lon qilinishi;
- Qurilish, rekonstruksiya va ta‘mirlash ishlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning e‘lon qilinishi;
- Keng jamoatchilik hamda ommaviy axborot vositalari ishtirokida o‘tkazilgan press-tadbirlar (matbuot anjumanlari, brifinglar, seminarlar, treninglar, davra suhbatlari, taqdimotlar, muhokamalar va boshqa tadbirlar) to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning e‘lon qilinishi darajasi.

**Uchinchi chorak yakunlari bo‘yicha:**

- Hisobot (hay‘at) yig‘ilishlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning e‘lon qilinishi;
- Avtomototransport vositalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning e‘lon qilinishi;
- Xizmat uylari va boshqa ko‘chmas mulklar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning e‘lon qilinishi;
- Xarajatlar smetasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning e‘lon qilinishi.

Aniqlangan kamchiliklar natijasida ekspertlar tomonidan mazkur ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholash jarayonida ayrim ballar kamaytirilganligi qayd etildi.

Yig‘ilish ishtirokchilari tomonidan ochiqlikni ta‘minlash, ochiq ma‘lumotlarni o‘z vaqtida va to‘liq joylashtirish hamda aniqlangan kamchiliklarni qisqa muddatlarda bartaraf etish zarurligi alohida ta‘kidlab o‘tildi.

**QAROR QILINDI:**

1. Aniqlangan kamchiliklarni belgilangan muddatlarda bartaraf etmagan tarkibiy bo‘linmalar to‘g‘risida Bank Boshqaruvi raisiga tegishli ma‘lumot taqdim etilishi haqida mas‘ullarga yozma ravishda ogohlantirish berilsin.













2. Tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etib, amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatiga yozma axborot taqdim etsin.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tomonidan ochiqlikni ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan **har chorak yakuni bo‘yicha monitoring va tahlillar o‘tkazib borilsin.**

**Majlis kotibi:**

 **A. Kurbanov**

### Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmat xodimlari

T/r	F.I.SH.	Lavozim	Imzo
1.	Toyirov Mirzohid Zamonovich	Xizmat rahbari o'rinbosari	
2.	Kurdashev Suhrob Noryigitovich	Bosh menejer	
3.	Tojiyev Abdug'ofur G'olibjonovich	Bosh menejer	
4.	Botirov Akmal Kodirovich	Katta menejer	
5.	Muxiddinov Nosiriddin Isomiddin o'g'li	Yetakchi menejer	
6.	Yuldashev Komiljon Abdumanopovich	Yetakchi menejer	
7.	Annakulov Otabek Abdihashimovich	Yetakchi menejer	
8.	O'rozov Hasan To'Ynazarovich	Yetakchi menejer	
9.	Raximov Xasan Toxirovich	Menejer	
10.	Shanazarov Shoxrux Shavkatovich	Menejer	
11.	Muborakov Zoxid Xamidxonovich	Menejer	
12.	Yuldashev Aminjon Muhiddinovich	Menejer	
13.	Navruzov Sherzod Shavkatovich	Menejer	